

TOSH KASALLIKLARINING KIMYOVIY ASOSLARI

X.Y.Nazarova

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti
Tibbiy va Biologik kimyo kafedrası asistenti

Samiyeva Sarvinoz

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti
Davolash ishi yo‘nalishi, 1-kurs talabasi

ANOTATSIYA

Mazkur maqolada Tosh kasalliklari, ularning uchrash joylari, kelib chiqish sabablari, inson organizmiga ta'sir etish sabablari, ularni ko'p uchraydigan turlari, davolash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** Buyrak tosh kassaligi, O't tosh kasalligi, Urodina, Oksalat, Fosfat, Kaliks Xolisterinli toshlar, Nefroltiaz*

Kirish: Inson organizmida toshlar erkin joylashadi. Ushbu toshlar asosida Ca va Na tuzlari yotadi. Toshlar faqatgina Buyrak va o't pufagidagina uchragina qolmasdan oshqozon osti bezi, so'lak bezlarining chiqish yo'llarida, bodomsimon bezlar, vena tomirlarning ichki qismida, ichaklarda, bronxlarda, tanglay chetlarida ham paydo bo'lishi mumkin. Toshlarning hosil bo'lishini inson tanasidagi ishqoriy muhit ta'sir ko'rsatadi va jarayonni tezlashtiradi. Buyrak va o't yo'llarida tosh hosil bo'lishini aniqlash uchun qon hamda peshob analizlarini maxsus laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazish zarur. Agar qondagi Kalsiy(Ca) miqdori 2.5 mmol/ldan, Peshobda 0.015gr/100mldan, Kaliy(K)ning 0.15gr/100ml dan, Fosfat(PO₄)ning 0.12gr/moldan oshib ketgani kuzatilsa organizmda tosh hosil bo'lish jarayoni kechayotganidan darak beradi. Tosh kasalliklari ichida eng ko'p uchraydigani Buyrak hamda o't yo'llarida

hosil bo'luvchi toshlar hisoblanadi. Har qanday tosh kasalliklari organizmning ortiqcha suvsizlanishi oqibatida kelib chiqadi. Shuningdek ushbu kasalliklarning kelib chiqishida modalar almashinuvi va quruq ob-havo sharoitlari ham sabab boladi.

Mavzuning dolzarbligi: Buyrak tosh kasalligi (nefrotiaz)- buyrak va siydik yo'llarida tosh(konkrement) hosil bo'lishi bilan kechadigan kassalik. Katta yoshli insonlarda yani ko'proq erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq uchrashi aniqlangan. Buyrak toshning aynan buyrak jomchasi, kosachalari, siydik yo'lida va qovuqda hosil bo'lishi mumkin. Kasallik avj olishi bilan birgalikda surunkali kechadi. Kasallik sabablariga mineral moddalar almashinuvining buzilishi, vitaminlar yetishmovchiligi, buyrak yallig'lanishlari oqibatida kelib chiqadi. Oqsil qoldiqlarining atrofiga siydikda erimaydigan tuz kristallari yopishishi natijasida mikrolilarni hosil qiladi, ular esa yana yiriklashib toshlarni hosil qiladi. Kattalıkları bir necha mm dan 10 sm gacha bo'lishi mumkin. Kasallik nasliy moyillik natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Asosan oksalat, fosfat, sitrutiv (marjonsimon) toshlar va $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$, MgNH_4PO_4 , CaCO_3 kabi tuzlar miqdorining oshishi bilan ham bog'liq. Kasallik bilan og'rikan bemorlarda og'riqli siydik ajralishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, siydikning xiralashuvi, siydik bilan qon ketishi(buning sababi toshlar qirradi siydik yo'llarini zararlaganligidan) bo'lishi mumkin. Agar ikkala buyrakda ham tosh bo'lsa oligouriya, gemoturiya, va anuriyaga olib kelishi bilan harakterlanadi. O't toshi kasalligi(Xolelitiiaz)-o't qopi va o't yo'llarida hosil bo'ladi. Sabablari qonda xolesterinning miqdorini ko'payishi, moddalar almashinuvining buzilishi, ovqat hazm qilish a'zolari ishining buzilishi, o't chiqaruv yo'llarining rivojlanishidagi buzulishlar, ovqatlanish ratsionining izdan chiqishi va boshqa ko'plab sabablar oqibatida kelib chiqishi mumkin. Asosan bu kasallikda o'ng qovurg'alar aro o'griqlar, og'izning taxirlashishi, najasning rangsizlanishi kabi belgilarni kuzatamiz. Tekshirish uchun qonning biokimyoviy taxlili, xolesistografiya, UTT, MR va KT kabi laboratoriya tekshiruvlaridan o'tish lozim. Toshni maydalash uchun esa ultara tovush va elektomagnet nurlaridan foydalaniladi. Agar vaqtida davolanmasa: Perixolisistit-o't qopi yallig'lanishi, o't qopi yorilishi-peritonit va qorin bo'shlig'i absesiga sabab bo'ladi. Oldini olish uchun to'g'ri

ovqatlanish, oshqazon ichak kasalliklarini o‘z vaqtida davolash ko‘proq suyuqliklar iste‘mol qilish lozim.

Xulosa: Ushbu kasallik bo‘yicha quyidagi xulosalarni aytishimiz mumkin:

-Har qanday kasallik ovqatlanish ratsionida yuzaga keladigan o‘zgarish va muammolar oqibatida kelib chiqadi.

-Organizmimizga atrof muhitning va ob-havoning ham o‘z ta‘siri mavjud.

-Biz tosh kasalliklarini oldini olishimiz uchun kamroq tuz va tuzli mahsulotlar iste‘mol qilishimiz va ko‘proq suyuqlik ichishimiz zarur.

-Organizmimizni yaxlit sistema ekanligini unutmasligimiz va sog‘lom turmush tarziga amal qilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. *Tibbiyot ensiklopediyasi*

2. *A.Ahmedov. G.Ziyamutddinova “Anatomiya Fiziologiya va Patalogiya” 2019- yil Toshkent*

3. *”Buyrakda toshlar(Urolitiaz)- Sabablari,Alomatlari,Tashxislash va Davolash usullari” [HTTPS: /MYMEDIC.UZ/](https://MYMEDIC.UZ/)*

4. WWW.AVITSENN.A.UZ

5. *Nozima Bobojonova. ”Buyrak tosh kasalligi:sabablari,belgilari va davolash*